



## 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**<sup>1</sup>Pulatova Gulnoza Murodilovna**

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi,

**<sup>2</sup>Muhammadjonov Jahongir Zokirjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7947183>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> May 2023

Online: 17<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Muloqot, nutq faoliyati, ertak, maqol, topishmoq, maktabgacha yoshdag'i bolalar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada 5-6 yoshli maktabgacha yosh davridagi bolalarning nutqini rivojlanishda ertak, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytishlardan foydalananish muhim ahamiyat kasb etishi borasida fikrlar bayon etilgan.*

**Kirish.** XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'limg-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini namoyon eta olish hislatlarini maktabgacha ta'limg tarbiyachilarida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bizning ustivor siyosatimiz yosh avlodni aqlan teran, ma'nан yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama rivojlangan komil, zukko inson qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bugungi kunda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'limg-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyojini va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirish ishlari o'ta dolzarb masalalardan biridir.

Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi. Nutqi o'z yoshiga nisbatan qo'yilgan talablar darajasida rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez va yengil muloqotga kirishadi, o'z istak va fikrini tushunarli qilib ifoda eta oladi, maktabda muvaffaqiyatl o'qib ketishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallaydi. Shu jihatdan qaraganda, maktabgacha yosh davrida bola nutqini tizimli rivojlanish jamiyat ahmiyatiga ega bo'lgan vazifalardan biri sanaladi.

**Asosiy qism.** Maktabgacha ta'limg muassasalari tizimini rivojlanish, bolalarni maktabgacha ta'limg muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'limg sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaralmoqda.



Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi".[1.157-158 bet].

Maktabgacha ta'lismi tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyag'a yetishida maktabgacha ta'lismi tarbiyasi juda - muhim o'rinni tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilish o'tkazildi, tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda.

Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtida yirik hujjat - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 -sentyabrdagi "**Maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "**Maktabgacha ta'lismi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismi vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risida**"gi PQ-3305-sonli Qarori imzolangan.[2.1bet]

Maktabgacha ta'lismi yanada takomillashtirishda faqatgina uning moddiy-teknika bazasini mustahkamlashgina emas, balki maktabgacha ta'lismi muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni mакtab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lismi-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lismi dasturlari va texnologiyalarini tafbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga oлган holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, ta'lismi-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lismi dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy pedagog'ik texnologiyalar va uslublarni inobatga oлган holda maktabgacha ta'lismi muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Bogcha yoshidagi bolalar nutq faoliyati: kattalar nutqini tushunishi va shaxsiy faol nutqni shakllanishi nutqini boshqa kishilar bilan muloqotda amaliy qo'llay olishi, bolaning nutqi psixik taraqqiyotini qayta qurishi asosini tashkil etishi va tafakkur qilish quroliga aylanishi o'ziga xos xususiyatgatga ega bo'lish hamda yoshga bogliq holda rivojlanib boradi. Shunday faoliyatlarni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi amaliy ahamiyatga ega. Bu esa "**Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati**" mavzusida izlanishlar olib borish hozirigi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Chunki bunda:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishni shakllantirish katta imkoniyatlarga ega bo'ladi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish bolalarda nutqning ravonligini va so'z boyligini oshiradi.



Mavzuga oid ilmiy-nazariy, falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, bolalarning nutqini o'stirish va rivojlantirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari ta'sirini o'rganish, tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tadbiq natijasini ko'rish, takomillashtirish masalalari natijasida maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilariga va ota-onalarga tavsiyalar berish, eng asosiysi bolalar nutqining amaliyotdagi natijasini samarasini ko'rishimiz mumkin.

Millat bolasini qutqarmoq ishtiyoqi bilan yashagan bobomiz Abdurauf Fitrat bunday degan edi: "Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, ana shu birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va ofatlari bolaligidanoq shakllanadi." [5.34b]

Besh olti yoshgacha odamlar bilan muloqotda bo'lmasdan o'sgan bola keyin nafaqat tilni bilish, hatto nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olish qobiliyatidan ham mahrum bo'ladi. "Kishi so'z eshitmak bila suxango'ylik hosil qila bilishini dalillab berar ekan, Kaykovus bobo o'zining' mashhur "Qobusnoma" kitobida shunday deydi:". Agar bir o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yerining ostidan bir joy qilib, sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va dadasi unga gapirmasalar, u o'g'lon hech kishining so'zini eshitmasa, ulug' bo'lg'onda lol (soqob) bo'lur" [6. 41-42b]

Shuning uchun ham til zavqi, madaniy nutq sezgisi va so'z sevgisi borasidagi ilk tarbiya oilada, bola bir-ikki so'zi "chug'urlash" baxtidan quvongan-sarmast bo'lgan paytdanoq boshlash kerak.

Tadqiqodchi A.R.Luriya nutq rivojlanishi davrlarini u quyidagicha ko'rsatib o'tadi:

- 1-davr - 2 oydan 11 oygacha.
- 2-davr - 11 oydan 19 oygacha.
- 3-davr - 19 oydan 3 yoshgacha.

Nutq rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini quyidagicha ifodalaydi.

- a) gugulash;
- b) g'udurlanish (soxta so'zlar);
- c) paradigmatic fonetika (1,3-1,5 yoshgacha) - buvi, buva, o'tir,o'tirdi, o'tiradi;
- d) nutqning vaziyat bopligi (J.Piaje - situativ nutq);
- e) nutq egotsentrizmi (J.Piaje - egotsentrik nutq). [4.513 b]

N.X.Shvachkin bolalar fonematik eshitishini dastlabki rivojlanish bosqicililarida o'rganib, 1-7 yoshdayoq fonematik eshitish shakllanib bo'lishini isbotladi. Bu davrga kelib, bola atrofdagi kattalar nutqining tarkibidagi barcha fonematik xususiyatlami farqlab oladi. Shuning uchun atrofdagilarning to'g'ri va noto'g'ri talaffuzini payqay oladi. Bog'cha yoshidagi bola noto'g'ri talaffuz etilg'an so'zlarni asta-sekin farqlamay qo'yadi. Bolada so'zlar va tovushlarning' fonetik obrazlari shakllanadi. Bu davrda bolalar nutqning fonetik tomoniga katta diqqat bilan qaraydi. [ 3.71 b]

Lug'at boyligininng' miqdoriy o'sishi D.B.Elkonning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yoqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaninng ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi. 6 yoshli



bolaning aktiv lug'ati esa, 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. [3.68b] Hozirgi rivojlanib borayotgan texnika asrida bog'cha yoshidagi bolalar nutqining lug'at boyligini bundanda ortishi kuzatilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, tez aytishlar, ertaklar aytib berish yoki suratlarga qarab ertak o'ylab topish, she'r va ashulalarni yod olish ham katta samara beradi. Tarbiyachi o'z mashg'ulotlarini shunday o'tish kerak-ki, bolaning o'z tasavvur olamlarida bu narsalarni xayolan hosil qilishlari kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun chiqarilgan ertak kitoblar turli-tuman rangli va qiziqarli suratlarga boy bo'lishi darkor. Bunday kitoblarni ko'rgan har qanday bolaning adabiyotga qiziqishi ortadi hamda talab ham kuchayadi. Bolalar uchun yaratilgan kitoblarda atrofimizdagi bizni o'rabi turgan yashil va jumboqli tabiatni asrab-avaylashga, hayovonot dunyosini bilishga va sevishga, murg'ak qalblarini mehrga to'ldiradi, onglarini rivojlantiradi. Shular asosida bolaning lug'at boyligi ortadi va nutqini o'stiradi.

**Materiallar va metodlar.** Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish uchun Farg'ona tumanidagi 35-maktabgacha ta'lim muassasasi tanlab olindi. Dastlab bog'cha yoshidagi bolalarning nutq faoliyati va o'ziga xos xususiyatlarinini o'rganish uchun maktabgacha ta'lim muassassining 2 ta guruhi tanlab olindi.

1-katta guruhni eksperement sifatida tanlab olindi. 2-guruh esa differensiyalash maqsadida tanlandi. 1-guruh tarbiyalanuvcilari bilan yil davomida xalq og'zaki ijodi orqali nutqini rivojlantirish mashg'ulotlari olib borildi. Tajriba 4 ta topshiriq asosida olib borildi.

1-bosqichda bolalarning' kattalarni og'zaki nutqini tushuna olishni o'rganishga qaratilgan. Dastlab eksperement guruh bolalarning nutq faoliyati xususiyatlarini o'rganish maqsadida L.I.Vansovskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Imperissiv nutqni o'rganish" metodikasidan foydalanib o'rganildi.

Uni quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin:

Testlar	Material	Ko'rsatma	Belgilar tahlili (xatolar)
1	2	3	4
1. Verbal ko'rsatmalarni tushunish va bajarishga yo'naltirilgan metod	Iboralar: Ko'zing'ni yum. 1.Og'zingni och. 2.Qo'lingni qo'y 3.O'rningdan tur, eshik oldiga kel, orqaga qayt	Men senga topshiriq beraman, diqqat bilan eshit va bajar.	Agar bolada nutqni ma'lum bir davrga kelib ham tushunmasa chakka bo'linmalarning disfunsiyasi buzilishidan yuzaga keladi.
2. Murojaat nutqini tushuna olish. Suhbat metodi	Maishiy sohada oddiy suhbat."Sen bugun nonushta qildingmi? Nima yeding'? Bugun ob-havo	Men senga savollar beraman sen javob berishga	Agar bolada nutqni ma'lum bir davrga kelib ham tushunmasa chakka bo'linmalarning



	qanday? Men bilan o'ynash senga yoqadimi?"	harakat qil. Xohlasang menga ham savol berishing' mumkin.	disfuntsiyasi buzilishidan yuzaga keladi.
3. Predmetli so'zlarni tushuna olish. Nomi aytilgan buyumni ko'rshish metodi.	1. Predmetli tasvirlar. 2. Tevarak- avrofdagi buyumlar.(5ta buyum tanlab olinadi)	Men buyumlarni nomini aytaman sen uni ko'rsatasan. Endi ikkita nomini aytaman sen uni ko'rsatasan. o'ng uchta nomini aytaman sen uni ko'rsatasan.	Hajmni ortirib boish qo'yidagi xatoliklarga olib borishi mumkin: 1.So'zni ketma-ketligini unutish. 2.Faqat bitta tasvirni (ob'ektni) payqash. 3.Rad etish. 4.Noadekvat tasvirni (ob'ektni) ko'rsatish.
4. Iboralarni tushunish. Iboralarni tushunish metodi.	Qisqa g'ammatik iboralar. G'ammatik iboralarg' mos keluvchi tasvirlarni ko'rsatish.	Meng' bola stulda o'tirg'n va stulda gul turgan tasvirini ko'rsat.Bunda nima chizilgan.	

2-bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyachilar bilan birgalikda tanlab olingen eksperiment guruhimizda ertak, maqol,tez ayrish kabi xalq og'zaki namunalaridan muntazam mashg'ulotlarda o'qib berildi va o'rgatildi.

3-bosqichda bolalardan eshitgan ertak va maqollardan aytib berish soraldi. Bunda bolalarning ertakni gapirib berganda yangi so'zlardan foydalanish holati va mazmunini aytib berishiga urgu qaratildi. So'ngra mashg'ulotlarda o'rgangan va xotirasida saqlab qolgan maqollardan aytib berish so'raldi.

4-bosqichda rasm chizish faoliyat mahsulini analiz qilish metodidan foydalanildi. Bunda bolalardan eshitgan ertak qahramonlari rasmlarini asfaltga bo'r orqali chizib berish topshirig'i berildi .


5-bosqichda eksperiment guruhi tarbiyalanuvchilarini amaliyot tajribamiz qay darjada amalga oshishini ko'zlagan maqsadimizga erishish maqsadida differensiyalash guruh tarbiyalanuvchilari bilan musobaqa tarzida mashg'ulot o'tkazildi.

**Natijalar.** Muntazam ravishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan eshitgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutq faoliyatining holati.

5-6 yoshli bolalar nutqida yangi so'zlar qoshildi. "Uddalayman" so'zini 12 nafar bola (48%), "Tahsinga loyiq" sozini 7 nafar bola (28%), "Qo'rqa boshladim" so'zini 6 nafar bola (24 %). "Dili pok" so'zini 5 nafar bola (16%), "Tanbeh bermang" so'zini 3 nafar bola (9%), "Tongda uyg'onaman" so'zini 10 nafar bola (40 %), "Badavlat" so'zini 9 nafar bola (36%), "Ahd qildim" so'zini 13 nafar bola (52 %), "Ulg'aydim" so'zini 20 nafar bola (80%) , "Yashirinib oldi"

13 nafar bola (52 %), "Minnatdorman" so'zini 21 nafar bola (84%), "Dovyurakman" so'zini 8 nafar bola (32) o'z so'z lug'atida yoqoridagi so'zlarni ishlatgan.

Quyidagi diagrammada so'zlarning ishlatish holati keltirilgan.



### **1-diag'ramma**

**Uchinchi bosqichda** maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini yanada rivojlantirish maqsadida "Tulki va turna" ertagi o'qib berildi. Bolalar uning mazmunini har biri gapirib berish so'raldi. Bolalardan mashg'ulotlar davomida o'qib berilgan, yodlatilgan maqollardan aytib berishi so'raldi. Quyidagi jadvalda eksperimentimizda 25 nafar bola nutqi va uning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

Yoqori	O'rta	Quyi
10 nafar bola	4 nafar bola	11 nafar
40 %	16 %	44 %

Yoqoridagi jadvallardan ko'rinish tiribdiki, nutqi rivojlangan bolalar 40% "yuqori" darajani tashkil etdi, 44 % "o'rta" darajani tashkil etdi. Eng muammoli bo'lgan quyi darajani esa, 16 % ni tashkil etdi. 4 nafar bolalarning ertak mazmunini to'lq aytib berishga qiynganligi va boshqa topshiriqlarni bajara olmaganliklari sabablarini o'rganishga harakat qildik. Ularning 1 nafarida sog'lig'ida muammosi borligi, 3 nafarida esa oilada ota-onasining bolaga ertak yoki hikoya aytib bermasligi aniqlandi. Navbatdagi tajribamiz va vazifamiz ushbu tarbiyalanuvchilar bilan shug'ullanishdan iborat bo'ldi. Ota-onalarga va tarbiyachilarga kerakli tavsiyalar berildi. Tinimsiz mashg'ulotlar, individual shug'ullanish va ayniqsa ota-onalarning ko'magi orqali 4 nafar bolalarning ham nutqini rivojlantirishga muvaffaq bo'lindi.

**4-bosqichda** Bolalarda bundanda ko'proq so'zlarni yod olishlari va nutqlarida qo'llashlari uchun acfaltga ertak qahramonlarini chizib, ya'ni proektiv metoddan foydalanib qayta hikoya qilib berish so'rald. Bu metod topshiriqlari bolalar bajarishga muvaffaq bo'lishdi. Bu mashg'ulot tajribamizning oxirgi bosqichi bo'lganligi uchun bolalarda ancha yoqori natijalarga erishishga muvaffaq bo'ldik.

Ushbu tajriba 1 yil davomida olib borildi. "Eksperiment guruh sifatida tanlangan 1-guruh va 2-guruh tarbiyalanuvchilar o'rtasida nutqga oid mashg'ulotlar o'tkazildi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish yoki o'stirishda xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lmish ertak, afsona, dostonlarning roli katta. Bunday asarlarda so'zlar aniq, sermazmun, to'g'ri, jumlesi sodda va bola xotirasiga qabul qila olishiga mo'ljallangan qilib yoziladi. Tarbiyachi nutq o'stirish mashg'ulotlarida shunday adabiyotlardan foydalanishi darkor. Hozirgi chop etilayotgan deyarli barcha kitoblar bolaning qanday yoshda ekanligini hisobga olgan holda tuzilgan hamda ertakning mazmunini tushunishga yordam berish bilan birga nutq madaniyatining tarkib topishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Xulosalar.** Nazariy va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi uchun ham, amaliyoti uchun ham dolzarb va ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

2. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bolalarda nutq paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi kishilar bilan muloqoti jarayonida ro'y beradi, degan tezisni aks ettiruvchi qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalar nutqiy namunalarini passiv ravishda qabul qilmaydi, balki umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida nutqni faol o'zlashtiradi. Bola nutqni o'stirish va rivojlantirish - bu eng avvalo, egallash uchun til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlanishdir.

3. Nutqni egallahsha eng muhim bosqich maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Chunki, verbal davrgacha bo'lган (tayyorlov) bosqichda nutqning muhim omillari yaratiladi. Bola o'z hayotining birinchi yili davomida atrofdagi kattalar bilan muloqot qilishning ikki shaklini o'zgartiradi. 1-vaziyatli-shaxsli muloqot (2-oylarga kelib), 2-vaziyatli-amaliy.

1. Ravon nutq bolaning aqlan, estetik, emotsiyonal jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

2. Bolalar lug'atini boyitishning asosiy manbasi bo'lib kattalar nutqi, birinchi navbatda, bolalarni o'qitib, tarbiyalaydigan tarbiyachining nutqi hisoblanadi. Ular tarbiyachidan obrazli so'zlarni, ifoda va qo'llash usullarini o'zlashtirib oladilar; ular nima yaxshi-yu nima yomonligini ajratib ololmaydilar, va eshitgan barcha so'zlarga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachining nutqi namunaviy bo'lishi lozim.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar mashg'ulotida xalq og'zaki ijodidan foydalanish bolalar lug'at boyligini o'sishiga sabab bo'ladi va bola talaffuzida notanish so'zlar zahirasi ortadi.

2. Mashg'ulotlarda ertak, maqol, tez aytishlardan foydalanish bola nutqida adabiy so'zlarni yuzaga keltiradi.

3. Bola nutqida xalq og'zaki ijodidan foydalanish, qolaversa nutqni rivojlaniradi ,balki taffakur va dunyoqarashini kengaytiradi.

4.Maktabgacha ta'lim muassasalarda bolalarni nutqini rivojlanirishda qo'llanilgan xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bola nutqini rivojlanirish bilan bir qatorda xotira jarayonini ham mustahkamlaydi.

**Tavsiyalar.** O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.



1. Bola shaxs muloqot jarayonida tarkib topishini hisobga olib bolaning ayniqsa tug'ilgan davrining birinchi yillarida me'yorda muloqot jarayonini tahlil etishga e'tiborni qaratish lozim. Bola nutqini rivojlantirshda turli yosh davrida uni o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish kerak.

2. O'yin jarayoni bolaning nutqini rivojlanishi uchun asosiy vosita ekanligini e'tiborga olish kerak.

3. Bolaning nutq taraqqiyoti uning yoshiga bog'liq bo'lishi bilan birga shakllantiriluvchi jarayon bo'lib, bu bolaning' individual xususiyatiga ham bog'liq bo'lganligi sababli bolaning nutqini rivojlantirish uchun mahsus mashg'ulotlar tashkillash maqsadga muvofiqdir.

4. Bolaning nutq faoliyati bilish jarayonlari: idrok, xayol, xotira va tarakkur jarayonlarining taraqqiyoti bilan bog'liqligini yodda tutish va uni taraqqiy ettirishda e'tiborni berish lozim.

5. Maktabgacha yosh davrida bola narsa va hodisalar haqida umumiy bilimlarni o'zlashtirishi bolaning nutqni egallashi bilan bog'liqligiga e'tiborni qaratish lozim. Maktabgacha yosh davrida bola nutq taraqqiyot darajasiga psixologik talablar qo'yilganligini hisobga olib, unga ta'lim- tarbiya berishga ushbu talablarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. Nutqning rivojlanishi ham fiziologik hususiyat bilan bilan birga psixologik hususiyatga egaligini hisobga olib, ta'lim- tarbiya jarayonida maxsus ravishda uni taraqqiy ettirib borish maqsadga muvofiqdir.

7. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachi va ota-onlar xalq og'zaki ijodini qo'llashda quydagilarga amal qilishi lozim:

- maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklardan so'ng ertak asosida rasm chizish va chizgan rasmlari haqida gapirib berishga o'rgatish;
- ertaklarni oxirigacha tugatmay, bolalarning o'zları tugatishlariga qo'yib berish;
- ertak tugagandan so'ng qaxramonlarning isimlarini va ularning kiyimlari haqida so'zlab berishni topshirish;
- ertak filmni tomosha qilgandan so'ng bu ertakni so'zlab berish vazifasini topshirish;
- rasmlarni ko'rsatib qaysi ertakdan olinganligi va qaysi vaziyat tavirlanganligini so'rash.
- maqol va ibratli so'zlardan aytib berish .

8. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llash uchun ertak, maqol va tez aytish kabi qo'llanmallarini yaratish lozim .

9. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda taqlidchanlik yuqori bo'lganligi sababli oinai jahonda namoyish etiladigan multfilm va bolalar uchun yaratilgan kinofilmlar saviyasi nazoratga olinishi zarur .

10. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ishtirokida ertak qahramonlari rollarini oynashga oid tadbirlar o'tkasilishi lozim.

### References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent, «O'zbekiston ». - 2017, 157-158 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini



tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori 2017 yil 9 -sentyabr.

3. Nishonova Z., Alimova G., Bolalar psixolog'iysi va uni o'qitish metodikasi.-T..O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.68-71bet
4. G'oziyev E. Psixolog'iya. - Toshkent.: O'qituvchi. 1994. 224b.
5. A.Fitrat,Oila, Toshkent,"Ma'naviyat" 1998y 34 bet.
6. Qobusnoma ,Toshkent , 1994y 41-41 betlar
7. Yuldasheva, Makhliyo Bakhtiyorovna, et al. "Semantic Analysis of Feeling Loneliness among Students." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 14552-14558
8. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// Общество и инновации 2.6/S (2021): 200-204.
9. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
10. Makhliyo Bakhtiyorovna Yuldasheva, Nodira Ibrokhimjanovna Toshboltaeva, Gulnoza Murodilovna Pulatova, Shokhista Kamoldinovna Mamajonova, Yokutkhon Urinbaevna Karimjanova // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pag'es. 14552 – 14558.
11. Toshboltayeva Nodira, Mamajonova Shoxista, Pulatova Gulnoza, Karimianova Yoqutkhon, Djalolova Mohinur //Exploring the development of creative thinking in small school students// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). Vol 14, Issue 02. 2022. 5701-5707 pages.
12. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, // Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.
13. Ahmadjonov Nurmuhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESSBASICS// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.
14. Ahmadjonov Nurmuhammad, Sobirjonova Masturabonu //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERİALLARNI O'RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. Vol. 25 No. 1 (2021). 182-188.
15. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITH DIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// "PEDAGOGS" international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.
16. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 MAY/ 2023 YIL/ 29 – SON. 232-238 betlar.
17. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 MAY/ 2023 YIL. 29 – SON. 239-246 betlar.



18. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI// SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI. 9-SON. 13.04.2023. 420-426 betlar.
19. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITH DIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// "PEDAGOGS" international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.
20. Ahmadjanov Nurmuhammad //FEATURES OF COGNITIVE PROCESSES SUCH AS PERCEPTION, MEMORY, THINKING IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 383-389 стр.
21. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IDROK, XOTIRA, XAYOL KABI BILISH JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 390-395 стр.
22. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li // KICHIK MAKTAB DAVRIDA TAFAKKUR RIVOJLANISHI DARAJASINI EKSPERIMENTAL O'RGANISHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 396-401 стр.
23. Г.С. Yunusova //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2021. № 6 (88). 84-87
24. Yunusova G. S. //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2014. C. 84.
25. Юнусова Гузал Султоновна, Турдиматова Елноза Эркинжоновна //РОЛЬ СЕМЬИ В ПРОЯВЛЕНИИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ// Образование и инновационные исследования. 2022 год № 11. 378-381 стр.
26. Юнусова Гузаль Султановна. //Развитие воображения молодежи и подростков, воспитывающихся в благополучных и неблагополучных семьях// Theoretical & Applied Science. № 6 (2).2013. 91-94
27. Юнусова Гузаль //Особенности взаимоотношений родителей с детьми-подростками в полных и неполных семьях// Молодой ученый. 2015. № 13 (93). С. 757-760.
28. Yunusova Guzal Sultanovna //THE INFLUENCE OF THE MOTHER'S PERSONALITY IN RAISING THE SPIRITUAL CONSCIOUSNESS OF ADOLESCENTS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Jun 9, 2022. 5, 111-115.
29. Yunusova Guzal Sultanovna //PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF CRIME PREVENTION AMONG TEENAGERS (FAMILY ASPECT)// American Journal of Interdisciplinary Research and Development, Oct 22, 2022. 9, 266-273.



30. Гўзал Султоновна Юнусова, Исройлов Аброржон Ахатжон ўғли //ЎЗБЕКИСТОНЛИК ОЛИМЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР МУАММОСИНинг ЎРГАНИЛИШИ// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 йил № 5. 284-287

31. Г.С.Юнусова //ВЛИЯНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ГОТОВНОСТЬ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ДЕТЕЙ// The Way of Science. 2018. № 2 (48). 77-79